

## MAKTABGACHA TA`LIMDA RIVOJLANTIRUVCHI MARKAZLARNING O`RNI

*Ismanova O`g`ilxon Mamatqulovna*

*Andijon viloyati Ulug`nor tumani 2-DMTT Tarbiyachi*

*Xabibullayeva Surayyo Maxamadali qizi*

*Namangan davlat universiteti Maktabgacha ta`lim yo`nalishi*

*5-kurs (sirtqi) talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta`lim jarayonini, uning bosqichlari haqida bayon etiladi. Ta`lim jarayonining poydevori maktabgacha ta`lim to`g`risida va bu ta`limni jamiyatdagi o`rni haqida batafsil yoritiladi. Maktabgacha ta`limda rivojlantiruvchi markazlarning o`rni haqida fikr yuritiladi.

Kalit so`zlar: ta`lim, maktabgacha ta`lim, davlat, subsidiya, rivojlantiruvchi markaz va soha, mashg`ulotlar.

Ta`lim jarayonini jamiyatning eng yuqori bo`g`ini sanaladi. Har bir davlatda bu tizim o`ziga xos ,ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqqan holda tashkil etiladi. O`zbekistonda ham ta`lim jarayoni uzlukli shaklda tashkil etilgan bo`lib, bu o`ziga xos tartib va tizimga ega. Jamiyatning bosh poydevori sanalgan maktabgacha ta`lim jarayoni ham ta`lim sifatining yetuk shaklda bo`lishini ta`minlaydi. Shu boisdan davlat bu tashkilotga ham o`z diqqat e`tiborini chuqur qaratadi. Yosh avlod tarbiyasi, ta`limi ,o`sishi ,rivojlanishi jamiyat taraqqiyotining bosh mezoni hisoblanadi. Xalqimizda “Bola –boshidan “ degan naqlga amal qilgan holda maktabgacha ta`lim yuksalishiga ,har bir viloyat,tuman ,shaharlarda tashkil etilishi davlat o`z tasarrufiga oladi. Maktabgacha ta`lim muassasasi, shuningdek, bolalar bog`chasi, boshlang`ich maktab yoki o`yin maktabi sifatida ham tanilgan, bolalarga boshlang`ich maktabda majburiy ta`limni boshlashdan oldin erta bolalik davridagi ta`limni taklif qiladigan ta`lim muassasasi. U davlat yoki xususiy bo`lishi mumkin va davlat mablag`lari hisobidan subsidiyalanishi mumkin. Bugun

maktabgacha ta'limda rivojlanuvchi sohalar va markazlar o'ziga xos tizimda tashkil etilmoqda. Sababi shundaki, o'rganishning eng muhim va boshlang'ich yillari tug'ilishdan boshlanadi. Bola hayotining dastlabki uch yili tilni o'zlashtirish, ijtimoiylashuv va o'rganishga munosabat uchun poydevor yaratishi juda zarur sanaladi. Rivojlanish paytida bola ongi juda kuchli ishlaydi, tez yodlab qoladi, ma'lumotni juda samarali o'zlashtira oladi. Miya va aqliy qobiliyat birinchi yillarda eng tez o'sadi. Rivojlanishga mos dasturlarga ega yuqori sifatli va yaxshi tayyorlangan o'qituvchilar va maktabgacha ta'lim muassasalari bolalarning ta'lim natijalarini yaxshilashga uzoq muddatli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun maktabgacha ta'lim jarayonida rivojlantiruvchi markazlar faoliyati shakllantirilmoqda.

Maktabgacha ta'limni qamrab oladigan rivojlanish sohalari turlicha. Biroq, odatda quyidagi asosiy mavzular taklif etiladi.

- Shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va hissiy rivojlanish
- Muloqot (shu jumladan imo- ishora tili), gapirish va tinglash
- Dunyo bilimi va dunyoni tushunish
- Ijodiy va estetik rivojlanish
- Matematik tushuncha
- Jismoniy rivojlanish
- Jismoniy salomatlik
- O'yin
- Jamoaviy ish
- O'z-o'ziga yordam ko'rsatish ko'nikmalari
- Ijtimoiy ko'nikmalar
- Ilmiy fikrlash
- Savodxonlik

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday rivojlanuvchi sohalarni yuksaltirishni , davlat kelajagi yoshlar qo'lida ekanligini anglagan holda maktabgacha ta'limda rivojlantiruvchi markazlar faoliyati tashkil etish haqida qonun qabul qilishga ko'mak berdilar. Xususan, Muhtaram Prezidentimiz Shavkat

Mirziyoyev maktabgacha taʼlimni rivojlantirishning 2017-yil 30 sentabrdagi PF-5198-sonli “Maktabgacha taʼlim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi farmoni, 2019-yil 8maydagi PQ-4312-sonli “Oʻzbekiston Respublikasi maktabgacha taʼlim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi qarori, 2019 yil 13 maydagi 391-son «Maktabgacha taʼlim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi, 2019 yil 11 iyundagi 487-sonli “Maktabgacha taʼlim tizimiga ilgʻor axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” gi qaroriga muvofiq yangi tizim yaratildi. Maktabgacha taʼlim tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan mazkur hujjatlarning barchasida bu taʼlim tizimiga innovatsiya kiritish, xorijiy tajribalarni oʻrganish va oʻzlashtirish taʼlim va tarbiya jarayonlariga zamonaviy taʼlim dasturlari va texnologiyalarini tadbiiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, maʼnaviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktab taʼlimiga sifatli tayyorlash bilan bogʻliq umumiy jihatlarni qamrab oladi. Shuningdek Maktabgacha taʼlim vazirligining 2018 yil 18 iyundagi 1-mh sonli “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qoʻyiladigan davlat talablari”, “Ilk qadam” dasturiga muvofiq uning har tomonlama va barkamol, yetuk rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, maktabgacha yoshdagi bolalarning taʼlim va tarbiya jarayonini tashkil etish va amalga oshirish, bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida oila va mahalliy jamoatchilik oʻrtasida oʻzaro yaqin hamkorlikni tashkil etish va amalga oshirish, MTTda oʻquv faoliyatini rivojlantiruvchi markazlarda tashkil etish kabi vazifalar belgilangan. Maktabgacha taʼlim tizimi tuzilma (maʼmuriyat, sinflar soni, oʻquvchi oʻqituvchi nisbati, xizmatlar), jarayon (sinfdagi muhit sifati, oʻqituvchi va bolaning oʻzaro aloqasi va boshqalar) va moslashtirish (standartlar, oʻquv dasturi, baholash) komponentlariga rioya qiladi. Oʻquv dasturi turli yoshdagilar uchun moʻljallangan. Masalan, 10 ga qadar hisoblash odatda toʻrt yoshdan keyin amalga oshiriladi. MTTda rivojlanish markazlarini tashkil etish Davlat talablari va “Ilk qadam” davlat dasturi asosida amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu markazlar boshlangʻich sinfga borish uchun individual qobiliyat va

qiziqishni rivojlantiradi. Mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, boshlang'ich ta'limga majburiy ravishda bir yillik bepul tayyorgarlik ko'rish uchun barcha guruhlarda rivojlantirish markazlari tashkil etilmoqda. Ko'zlangan maqsad esa bola o'sishini kuchli ta'minlash, samarali ta'lim berish, maktabga jalb etish va shunga mos shart-sharoit yaratish hisoblanadi. Maktabgacha ta'limda rivojlantiruvchi markazlar ta'lim, rivojlantiruvchi, o'qitish, rag'batlantiruvchi, uyushgan, kommunikativ kabi o'z tizimini yuksaltiruvchi funksiyalarni bajarishi kerak. Bu funksiyalar eng muhimi bola mustaqilligini, erkin fikrlash, bolalar va kattalar orasidagi o'zaro munosabatlar jarayonini rivojlantirish ustida ishlashni talab etadi. Bunday markazlarda markazlarning o'zaro dizayni, estetikasi, bolalar uchun jozibali, qiziqish uyg'otadigan bo'lishi kerak. Jihozlari ham bola yoshiga mos, xavfsiz, didaktik talablarga mos holda tashkil etilishi lozim. Ushbu markazga tarbiyachilar va bolalar xohish-istagiga ko'ra ko'plab turli narsalarni – o'yinchoq mashinalar, yuk mashinalari, samolyotlar, gazlama bo'laklarini qo'shib qo'yish mumkin. Syujet-rolli o'yinlar va dramalashtirish markazida bolalarda haqiqiy hayotdan olingan kichik na'va ko'rinishlarini o'ynashga xohish-istak uyg'otish uchun albatta kerakli kiyimlar va boshqa narsalar bo'lishi zarur. Shuningdek, bu yerda tarbiyachi yoki ko'ngilli yordamchi bolalarga kitobni ovoz chiqarib o'qib berishi mumkin. Bolalarning tabiat hodisalari haqida bilib olgan tushunchalari narsalar bilan mashg'ul bo'lishlari uchun foydalaniladi. Markazdagi mashg'ulotlar ijodiy qobiliyat, so'z orqali va so'zsiz muloqot, umumiy va nozik harakatlanish, aqliy qobiliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan. Pedagoglarning vazifasi – bolalarning muloqotga kirishishga bo'lgan qiziquvchanligini rag'batlantiruvchi muhitni yaratish va bolalarning o'zgaruvchan ehtiyojlariga qarab, o'z vaqtida kerakli sharoitlarni moslashtirgan hamda ularni kuzatishdan iborat. Xulosa qilib aytganda Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan rivojlanish markazlaridagi jarayonlar bolalarning doimiy ravishda yangi bilimlarni o'zlashtirishga, mustahkamlashga yordam beradi. Bolalarni o'z bilimini mustaqil ravishda to'ldirib borish, kechayotgan yangilanish jarayonlariga munosib

moslashib borishga o`rgatish rivojlanish markazlarining asosiy maqsadidir. Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida olib boriladigan rivojlantiruvchi markaz faoliyatlarida bolalarga - muammolarni eta olish,- ijodiy, tafakkur va ixtirochilik imkoniyatlarini namoyon etish, odamlar, jamiyat, mamlakat, atrof-olam haqidagi g`amxo`rlik qilish kabilar o`rgatib boriladi. Oqilona tashkil etilgan sog`lom ijtimoiy-ma`naviy muhit bolalarda izlanishga bo`lgan muhabbatlarini rivojlantiradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo`yiladigan Davlat talablari. Toshkent-2018 yil.

2. "Ilm yo`li" variativ dasturi. Toshkent "Sano-standart" 2020 yil. 13,

3. Maktabgacha pedagogika f. r. Qodirova, Sh. Q. Toshpo'latova, N.M. Kayumova, M.

.N. A'zamova "Tafakkur" Nashriyoti Toshkent - 2019

4. Maktabgacha pedagogika Berdiyeva M.M.

Maktabgacha tarbiya pedagogikasi P.Yusupova Toshkent "O`qituvchi" 1993 yil